

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligi ichki audit xizmati faoliyatining
2024-yil 1-chorak yakunlari bo‘yicha
HISOBOTI**

I. Umumiy ma’lumotlar

Agentlikning markaziy apparatida “Ichki audit xizmati” alohida mustaqil tarkibiy tuzilma sifatida tashkil etilgan bo‘lib, Ichki audit xizmati bevosita Agentlikning direktoriga bo‘ysunadi.

Agentlikning markaziy apparatida “Ichki audit xizmati” uchun alohida **1,0 stavka shtat birligi** ajratilgan bo‘lib, shtatalar jadvaliga Ichki audit xizmati boshlig‘i lavozimi kiritilgan.

Agentlikning 2022-yil 10-iyun kunidagi 13-k/b-sonli buyrug‘i bilan **Salomov Abubakir Abdimalikovich Ichki audit xizmati boshlig‘i** lavozimiga qabul qilingan bo‘lib, bugungi kunga qadar ushbu lavozimda ishlab kelmoqda.

Agentlikning Ichki audit xizmati boshlig‘i Salomov Abubakir Abdimalikovichga O‘zbekiston Auditorlar Palatasi tomonidan **28.08.2023-yilda IAMMS 0054-sonli Ichki audit milliy malaka sertifikat**i berilgan.

Agentlik hamda uning tizimida bugungi kunda hududiy Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmalari 14 ta, Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo‘yicha Markaz 1 ta, Ma’muriy binolardan foydalanish DUK 1 ta, O‘zbekiston Nashriyoti DUK 1 ta, Noshirlik-matbaa faoliyati sohasida mutaxassislarni tayyorlash kolleji 1 ta, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi 1 ta hamda uning tizimidagi viloyat va tuman Axborot kutubxona markazlari 204 ta **jami 224 ta tizim tashkilotlari** mavjud.

II. Ichki audit yillik rejasida tasdiqlangan ichki audit tadbirlarining hisobot davrida rejalashtirilgan qismining bajarilishi holati.

Agentlik ichki audit xizmatining 2024-yil uchun tasdiqlangan va “Davlat auditi” dasturiga kiritilgan yillik ish rejasiga muvofiq joriy yilning **1 choragi uchun jami 15 ta tizim tashkilotlarida** ichki audit tadbirlarini o‘tkazish belgilangan bo‘lib, **barchasida (100%)** ichki audit tadbirlari amalga oshirildi hamda natijalari to‘liq “Davlat auditi” dasturiga o‘z vaqtida kiritilgan holda **1 ta nazorat obyekti bo‘yicha to‘plangan hujjatlar huquqiy baho berish uchun huquqni muxofaza qilish organiga yuborildi.**

Bundan tashqari, 2024-yil 1-chorak davomida fuqarolar murojaati yuzasidan **1 ta tizim tashkilotida rejadan tashqari** ichki audit tadbiri o'tkazildi va natijasi to'liq "Davlat auditi" dasturiga kiritilgan holda hujjatlar **huquqiy baho berish uchun huquqni muxofaza qilish organiga yuborildi.**

III. Hisobot davrida o'tkazilishi rejalashtirilgan, lekin amalga oshirilmagan ichki audit tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Hisobot davrida o'tkazilishi rejalashtirilgan audit tadbirlari 100 foiz amalga oshirildi.

IV. Ichki audit obyektlari tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Ichki audit tadbiri yakunlari bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilmoqda va bu chora-tadbirlar rejasida asosan, o'rganishda aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, ularni kelib chiqishining oldini olish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilmoqda. Jumladan:

Ichki audit yillik rejasi asosidagi o'tkazilgan **15 ta ichki audit tadbirlari natijasida 66 ta taklif va tavsiyalar berilgan** bo'lib, bugungi kunga qadar **53 ta (80%) taklif va tavsiyalar bajarilgan** bo'lsa, qolgan 13 ta (20%) taklif va tavsiyalarning bajarilishi ustida ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, Rejadan tashqari o'tkazilgan **1 ta ichki audit tadbiri natijasida 3 ta taklif va tavsiyalar berilgan** bo'lib, bugungi kunga qadar **2 ta (67%) taklif va tavsiyalar bajarilgan** bo'lsa, qolgan 1 ta (33%) tavsiyaning bajarilishi ustida ishlar olib borilmoqda.

Misol uchun; Xodimlarga to'lanayotgan ish haqi hamda unga tenglashtirilgan mablag'larning hisoblanishi va to'lanishini doimiy ravishda nazorat qilib borish;

Adliya vazirligida 20.09.1995-yilda 177-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus fondi to'g'risida"gi Nizomga asosan MRJ mablag'lari faqat ish haqiga ustama va mukofotlar belgilashga yo'naltirish;

19-sonli BHMS talablari asosida o'tkazilgan sanoq natijasida aniqlangan ortiqchaliklarni balans hisobotlariga kirim qilish va kamomad mablag'larni byudjetga tiklash va tegishli tartibda inventarizatsiya ishlarini o'tkazish;

Abonomentlar va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish bo'limi, o'quv zali, bolalar bo'limi foydalanuvchilarga jami 8 nafar xodimlar xizmat ko'rsatayotganligi, markazlarda bor yo'g'e 1-2 ta o'quv zallari mavjudligi, yetarli darajada shart-sharoitlar mavjud emasligi sababli ushbu lavozimlarda takrorlanuvchi va samarasiz

vazifa hamda funksiyalar yuzaga kelayotganligini inobatga olgan holda Abonomentlar va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish xizmati shtat birliklarini optimallashtirish;

Axborot-bibliografiya xizmati, fondlarni to'ldirish, saqlash va ularga ishlov berish xizmati va Axborot kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarida ham ko'rsatilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish, ularni bartaraf etish imkoni bo'lmaganda yoki takrorlanuvchi va samarasiz vazifa hamda funksiyalar yuzaga kelgan taqdirda shtat birliklarini optimallashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi.

V. Ichki audit xizmati faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligi ichki audit xizmati **shtat birliklari sonini kamida 4 nafarga oshirish** va "Vazirlik va idoralar ichki audit xizmati xodimlarining ish samaradorligini baholash, reytingini yuritish va rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi" **Nizom loyihasini tezroq amaliyotga joriy qilish** orqali Agentlik ichki audit xizmati faoliyatini yanada rivojlantirishga erishish mumkin.

VI. Ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta'minlash va oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.

Hisobot davrida, har bir hududda o'tkazilgan ichki audit tadbiri yakuni bo'yicha tizimli kamchiliklarning kelib chiqishi, ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha o'quv seminarlari tashkil etilib, tegishli ko'rsatmalar berib kelinmoqda.

Bundan tashqari, tizim tashkilotlarining rahbar va buxgalteridan iborat bo'lgan Telegramm ijtimoiy tarmoqda "AOKA Moliyaviy maslahat" (https://t.me/aoka_moliyaviy_maslahat) guruhi ochilgan bo'lib, mazkur guruhda o'rganish jarayonida aniqlanayotgan tizimli kamchiliklarni bartaraf etish va boshqa o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob berib kelinmoqda.

VII. Aniqlangan tizimli kamchiliklar, xavflar va ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

Aniqlangan tizimli kamchiliklar asosan, O'zbekiston Respublikasining 09.04.2018-yildagi O'RQ-472 sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni talablari buzilgan holda shartnomalar tuzilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.06.2018-yildagi "Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirishning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash haqida"gi 458-sonli qarorining 8-9 bandi talablariga zid ravishda ortiqcha ish haqi mablag'lari to'langanligi;

Ish haqi mablag'larining hisoblanishi va to'lanishi UzASBO DMdan foydalangan holda o'rganilganda, ish haqi mablag'lari "Pereraschet" va boshqa usullar orqali asossiz ravishda qo'shib yozib olinganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi PF-1154-sonli "Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining mas'uliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni talablariga rioya etilishi o'rganilganda muddati o'tgan debitor qarrzdorlik yuzaga kelganligi;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010-yil 22-dekabrda 2169-son bilan ro'yxatga olingan "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Yo'riqnomaga asosan, sotib olingan kitoblar UzASBO DMga turi, soni va narxi bo'yicha alohida-alohida nomma-nom 018 "Kutubxona fondi" subschyotiga kiritilganligi;

Tovar moddiy boyliklarni balans hisobotlariga kiritilishi va belgilangan tartibda chiqim qilinishi o'rganilganda, tovar moddiy boyliklar UzASBO DMga kiritilmasdan "Akt v. Rabot" qismi orqali to'g'ridan-to'g'ri hisobdan chiqarilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 02.11.1999-yilda 833-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisoboti Milliy standarti "Inventarlashni tashkil etish va o'tkazish" to'g'risidagi 19-BHMS talablari asosida asosiy vositalar sanoqdan o'tkazilganda kamomad va ortiqchaliklar borligi;

Bundan tashqari, maxsus kasbiy bilimlarni talab etadigan sohaviy masalalarni o'rganish uchun jalb qilingan mutaxassislar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, sohaviy yo'nalishlarda ham bir qancha xato-va kamchiliklar borligi aniqlanmoqda.

Hisobot davrida, har bir hududda o'tkazilgan ichki audit tadbiri yakuni bo'yicha tizimli kamchiliklarning kelib chiqishi, ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha o'quv seminarlari tashkil etilib, tegishli ko'rsatmalar berib kelinmoqda.

Bundan tashqari, tizim tashkilotlarining rahbar va buxgalteridan iborat bo'lgan Telegramm ijtimoiy tarmoqda “AOKA Moliyaviy maslahat” (https://t.me/aoka_moliyaviy_maslahat) guruhi ochilgan bo'lib, mazkur guruhda o'rganish jarayonida aniqlanayotgan tizimli kamchiliklarni bartaraf etish va boshqa o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob berib kelinmoqda.

VIII. Vazirlik va idora faoliyatida budget intizomini mustahkamlash, xavflarni profilaktika qilish hamda budget xarajatlari natijadorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar.

Zamonaviy axborot texnologiyalari va ma'lumotlar bazasi vositasidan foydalangan holda masofaviy auditni keng ko'lamda qo'llash orqali ichki audit tadbirlari samaradorligini oshirish mumkin.

Ichki audit xizmati tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar davomida bajarilmagan ish hajmlari, ishga kelmagan xodimlarga ish haqi mablag'lari to'lanayotgani hamda boshqa turdagi ish haqidan ortiqcha to'lovlar aniqlanib, o'rganish hujjatlari huquqni muxofaza qilish organlari va Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasiga yuborilmoqda.

Biroq, huquqni muxofaza qilish organlari tomonidan Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va Mehnat huquq inspektorlari xodimlari mutaxassis sifatida tekshirishga jalb qilinib, tekshirish o'tkazilganda ichki audit tadbiri davomida aniqlangan dastlabki holatlar asossiz ravishda rad etilmoqda.

Natijada, tegishli normativ hujjatlarga zid ravishda ishlayotgan byudjet tashkilotlari tomonidan budget intizomini buzish holatlari kuchaymoqda.

Misol uchun; Surxondaryo viloyatidagi Sho'rchi tuman axborot-kutubxona markazi bo'yicha o'tkazilgan “Kameral nazorat” tadbirida bir qator xato va kamchiliklar aniqlangan bo'lib, “Kameral nazorat” tadbirida aniqlangan holatlarga aniqlik kiritish uchun rejadan tashqari «Ichki audit tadbiri» o'tkazilgan.

O'tkazilgan rejadan tashqari «Ichki audit tadbiri» davomida “Kameral nazorat” tadbirida aniqlangan dastlabki holatlar o'z tasdig'ini topgan bo'lib, huquqiy baho berish uchun to'plangan hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga taqdim etilgan.

Surxondaryo viloyati prokuraturasining 15.12.2023-yildagi 10.1/4-5820-23-sonli talabnomasiga binoan Surxondaryo viloyati Davlat moliyaviy nazorati Boshqarmasi tomonidan muassasada tekshirish o'tkazilgan bo'lib, tekshirish yakuni bo'yicha 24.01.2024-yilda Dalolatnoma rasmiylashtirilgan.

Mazkur tekshirish, asosan Ichki audit xizmati tomonidan aniqlangan dastlabki ma'lumotlar asosida o'rganilgan bo'lib, muassasaning moliya xo'jalik faoliyati yuzasidan “Yakuniy nazorat tadbiri” o'tkazilmaganligi, shuningdek, o'z yo'nalishi

bo'yicha tegishli xulosalar berilmaganligi sababli dastlabki aniqlangan ma'lumotlar asossiz ravishda rad etilgan. Jumladan:

1. (Ichki audit xizmati tomonidan aniqlangan dastlabki holat). Markaz tomonidan 2020-yil sentyabr-dekabr oylarida 11 nafar xodimlarga **jami 12 860,5 ming so'm** mablag' Vazirlar Mahkamasining 16.04.2020-yildagi **232-sonli** va 21.09.2020-yildagi **575-sonli qarorlari talablariga zid ravishda** ortiqcha to'langanligi aniqlangan.

- Ushbu holat yuzasidan Surxondaryo viloyati Davlat moliyaviy nazorati Boshqarmasi tomonidan xulosa berilmagan bo'lib, Mehnat huquq inspektorlari tomonidan "Xodimlarga rag'batlantirish va moddiy yordam mablag'lari to'g'ri to'langan" deb berilgan xulosani asos qilib, ortiqcha to'lovlar yo'qligi ko'rsatilgan.

2. (Ichki audit xizmati tomonidan aniqlangan dastlabki holat). 2021-yilda 14 099,2 ming so'm, 2022-yilda 6 820,9 ming so'm va 2023-yil 10 oy davomida 2 087,9 ming so'm **jami 23 008,0 ming so'm** MRJ mablag'lari rejaga nisbatan ko'p sarflanganligi aniqlangan.

- Ushbu holat yuzasidan Mehnat huquq inspektorlari tomonidan "Xodimlarga rag'batlantirish va moddiy yordam mablag'lari to'g'ri to'langan" deb berilgan xulosasi asos qilib olingan.

3. (Ichki audit xizmati tomonidan aniqlangan dastlabki holat). **Nazarova Soxibjamol** markaz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra markazning 2022-yil 01-iyundagi 11-sonli buyrug'iga asosan Aboniment va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish mutaxassisi lavozimiga ishga qabul qilingan bo'lib, bugungi kungacha ishlab kelayotganligi ma'lum bo'lgan.

S.A.Nazarovanning ishga kelib-ketishi va ish hajmining bajarilishi yuzasidan markaz xodimlaridan so'ralganda, ushbu xodim haqiqatda muassasada ishlamagan va ish hajmini bajarmagan bo'lsada, unga oylik tabellar to'ldirilgan holda 2022-yilda 12 708,0 ming so'm va 2023-yilda 17 789,2 ming so'm **jami 30 497,2 ming so'm ish haqi** mablag'lari ortiqcha to'lab berilganligi aniqlangan.

Ushbu holatga Mehnat huquq inspektorlari tomonidan S.Nazarovanning haqiqatda 2022-yil iyun oyida buyon ishlab kelayotganligi, bunga oylik tabellar va tashkilot buyruqlari asos bo'lishi ko'rsatib o'tilmoqda.


Yuqoridagi holatlarning oldini olish maqsadida qo'yidagilarni tavsiya qilamiz.

- Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi tomonidan berilayotgan xulosalarni tegishli normativ hujjatlarga binoan asoslab berishlarini;

- Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi vakolati doirasida bo'lgan masalalarga o'z xulosalarini berishlarini, Moliya vazirligiga yuklatilgan masalalar bo'yicha Mehnat huquq inspektorlari xulosalari bilan cheklanib, masalaga aniqlik kiritishdan qochish holatlariga yo'l qo'ymaslikni;

- Ichki audit xizmati tomonidan tanlov usuli bilan o'tkazilgan joriy nazorat davomida qonun buzilish holatlari aniqlanib huquqiy baho berish va tekshirish o'tkazish uchun huquqni muxofaza qilish organi yoki Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasiga berilganda, muassasada tekshirish ishlarini moliya xo'jalik faoliyatini qamrab olgan holda "yakuniy nazorat" sifatida o'tkazishni tavsiya etamiz.

A.Salomov
Ichki audit xizmati rahbari
(F.I.O.)


(imzo)

01.04.2024
(kun, oy, yil)

Izoh. Hisobot ichki audit xizmati tomonidan har bir qism bo'yicha bayon etiladi. Agar ichki audit xizmati faoliyatida birorta qismi bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, mazkur qismda shunday yozuv bilan ko'rsatiladi. Hisobotning hajmi bo'yicha chegara mavjud emas. Hisobotga tegishli jadvallar ilova qilinadi.

Shuningdek, ichki audit xizmati tomonidan hisobotga vazirlik (idora) ichki audit faoliyatiga oid qo'shimcha ma'lumotlar ham kiritilishi mumkin.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligi Ichki audit xizmatining xodimlari to'g'risida ma'lumot

01.04.2024 йил

T/r	Tizimdagi tashkilotlar soni	Ichki audit xizmatlari shtat birliklari soni		
		jami	markaziy apparatda	budjet tashkilotlari darajasida
1	224	1	1	0

Ички аудит хизмати бошлиғи



А.Саломов

**2024-yil I chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligi Ichki audit xizmati
yillik rejasining bajarilishi to'g'risida ma'lumot**

T/r		Hisobot davrida o'tkazilgan jami ichki audit tadbirlari		Ichki audit yillik rejası asosida					Rejadan tashqari							
				Hisobot davrida ichki audit yillik rejasiga kiritilgan ichki audit tadbirlari		Ichki audit yillik rejası asosida hisobot davrida o'tkazilgan ichki audit tadbirlari		Yillik rejaning hisobot davrida bajarilishi	shundan							
									Hisobot davrida jami o'tkazilgan rejadan tashqari ichki audit tadbirlari		fuqarolar ishtirokidagi audit tizimi orqali aniqlangan		budjet to'g'risidagi qonunchilik buzilishi faktlari to'g'risida ma'lumotlar asosida		boshqa holatlarda	
											tadbirlar soni	obyektlar soni	tadbirlar soni	obyektlar soni	tadbirlar soni	obyektlar soni
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
1	Ichki audit tadbirlari	16	16	15	15	15	15	100%	1	1	0	0	1	1	0	0
	Jami	16	16	15	15	15	15	100%	1	1	0	0	1	1	0	0

Ички аудит хизмати бошлиғи



A.Саломов

2024-yil I chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligi Ichki audit xizmati faoliyati umumiy natijalari

(mln.so'mda)

T/r		O'tkazilgan ichki audit tadbirlarida aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar				Profilaktika tadbirlari natijasida oldi olingan (bartaraf etilgan) samarasiz xarajatlar				Tegishli budjetga tiklangan mablag'lar				Huquqiy baho berish uchun vakolatli organlarga yuborilgan holatlar				Ichki audit tadbirlari natijalariga ko'ra intizomiy jazo qo'llanilgan xodimlar soni	shundan		
		tadbirlar soni	obyektlar soni	holatlar soni	summasi	tadbirlar soni	obyektlar soni	holatlar soni	summasi	tadbirlar soni	obyektlar soni	holatlar soni	summasi	tadbirlar soni	obyektlar soni	holatlar soni	summasi		Hayfsan	Jarima	Lavozi-midan ozod etish
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21
1	Ichki audit tadbirlari	16	16	532	1 326,9	10	10	244	1 159,6	3	3	16	34,8	2	2	308	282,3	27	22	4	1
	Jami	16	16	532	1 326,9	10	10	244	1 159,6	3	3	16	34,8	2	2	308	282,3	27	22	4	1

Izoh. Jadvalda ichki audit tadbirlari natijalari haqidagi ma'lumotlar yo'nalishlar, sohalar kesimida ko'rsatilishi mumkin.

Ички аудит хизмати бошлиғи



А.Саломов

2024-yil I chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligi Ichki audit xizmati tomonidan masofaviy audit o'tkazilgan obyektlar to'g'risida ma'lumot

mln.so'm

T/r		Masofaviy audit o'tkazilgan ichki audit obyektlari soni	Masofaviy audit orqali aniqlangan shubhali operatsiyalar bo'yicha o'tkazilgan ichki audit tadbirlari natijalari		Shundan:					
					Oldi olingan (bartaraf etilgan) moliyaviy xato va kamchiliklar		Tegishli budjetga tiklangan mablag'lar		Huquqiy baho berish uchun vakolatli organlarga yuborilgan holatlar	
					Obyektlar soni	Summasi	Obyektlar soni	Summasi	Obyektlar soni	Summasi
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Masofaviy audit tadbirlari	3	3	33,3	2	20,7	1	12,6		
	Jami	3	3	33,3	2	20,7	1	12,6	0	0

Izoh. Jadvalda masofaviy audit tadbirlari natijalari haqidagi ma'lumotlar yo'nalishlar, sohalar kesimida ko'rsatilishi mumkin.

Ички аудит хизмати бошлиғи



A.Саломов

2024-yil I chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligi Ichki audit xizmati natijalari bo‘yicha taklif va tavsiyalarining bajarilishi

T/r		Hisobot davrida o‘tkazilgan jami ichki audit tadbirlari		shundan			
				Ichki audit yillik rejasi asosidagi ichki audit tadbirlari natijasida berilgan taklif va tavsiyalarning bajarilishi		Rejadan tashqari ichki audit tadbirlari natijasida berilgan taklif va tavsiyalarning bajarilishi	
		tadbirlar soni	obyektlar soni	takliflar soni	bajarilishi	takliflar soni	bajarilishi
A	1	2	3	4	5	6	7
1	Taklif va tavsiyalar	16	16	66	53	3	2
	Jami	16	16	66	53	3	2

Izoh. Jadvalda taklif va tavsiyalar haqidagi ma’lumotlar yo‘nalishlar, sohalar kesimida ko‘rsatilishi mumkin.

Ички аудит хизмати бошлиғи



A.Саломов

2024-yil I chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligi Ichki audit xizmati tomonidan aniqlangan tizimli xavflar va ularning oldini olish (bartaraf etish) bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar

T/r	Tizimli xavflar mazmuni	Tizimli xavflarning oldini olish yoki bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar (takliflar)
1	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.06.2018-yildagi “Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirishning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash haqida”gi 458-sonli qarorining 8-9 bandi talablariga zid ravishda ortiqcha ish haqi mablag‘lari to‘langanligi aniqlangan	Tizimdagi boshqa budget tashkilotlari ham O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 20.11.2019-yildagi 05/05-12-04-32/2207-sonli xati va Vazirlar Mahkamasining 19.06.2018-yildagi 458-sonli qarori talablariga rioya etgan ish haqi hisoblash va avvalgi yillarda hisoblangan oylik ish haqlarini qayta ko‘rib chiqqan holda ortiqcha to‘lovlarni o‘rganish kunigacha bartaraf etish choralarini ko‘rish.
2	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 02.11.1999-yilda 833-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisoboti Milliy standarti “Inventarlashni tashkil etish va o‘tkazish” to‘g‘risidagi 19-BHMS talablari asosida asosiy vositalar sanoqdan o‘tkazilganda kamomad va ortiqchaliklar borligi aniqlangan	19-sonli BHMS talablari asosida o‘tkazilgan sanoq natijasida aniqlangan ortiqchaliklarni balans hisobotlariga kirim qilish va kamomad mablag‘larni byudjetga tiklash va tegishli tartibda inventarizatsiya ishlarini o‘tkazish
3	Ish haqi mablag‘larining hisoblanishi va to‘lanishi UzASBO DMdan foydalangan holda o‘rganilganda, ish haqi mablag‘lari “Pereraschet” va boshqa usullar orqali asossiz ravishda qo‘shib yozib olinganligi aniqlangan	Xodimlarga to‘lanayotgan ish haqi hamda unga tenglashtirilgan mablag‘larning hisoblanishi va to‘lanishini doimiy ravishda nazorat qilib borish
4	O‘zbekiston Respublikasining 09.04.2018-yildagi O‘RQ-472 sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni talablari buzilgan holda shartnomalar tuzilganligi aniqlangan	O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga rioya qilingan holda xaridlarini amalga oshirish;
5	Muddati o‘tgan debitor qarzdorliklar aniqlanmoqda	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi PF-1154-sonli “Xalq xo‘jaligida hisob-kitoblar o‘z vaqtida o‘tkazilishi uchun korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining mas‘uliyatini oshirish borasidagi choratadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni talablariga rioya etish

Ички аудит хизмати бошлиғи



A.Саломов